Kalit so‘zlar: soliq salohiyati, soliq tizimi, iqtisodiy mazmun, soliq bazasi, budget daromadlari, soliq siyosati, fiskal samaradorlik, soliq yukini optimallashtirish, soliq tushumlari, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract. This article discusses the economic content of tax capacity, the laws of its formation and its strategic role in the tax system. During the study, the factors affecting tax capacity were analyzed and the importance of this indicator in stabilizing state budget revenues was substantiated. Also, ways to ensure the country's economic growth by expanding the tax base and increasing tax collection were considered. The article is intended for specialists interested in improving tax policy and optimizing the tax burden.

Key words: tax capacity, tax system, economic content, tax base, budget revenues, tax policy, fiscal efficiency, optimization of the tax burden, tax revenues, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое содержание налогового потенциала, законы его формирования и стратегическая роль в налоговой системе. В ходе исследования проанализированы факторы, влияющие на налоговый потенциал, и обоснована важность этого показателя для стабилизации доходов государственного бюджета. Также рассмотрены пути обеспечения экономического роста страны путем расширения налоговой базы и увеличения налоговых поступлений. Статья предназначена для специалистов, заинтересованных в совершенствовании налоговой политики и оптимизации налогового бремени.

Ключевые слова: налоговый потенциал, налоговая система, экономическое содержание, налоговая база, бюджетные доходы, налоговая политика, фискальная эффективность, оптимизация налогового бремени, налоговые поступления, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.



KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash va strategik rivojlanish maqsadlariga erishish uchun uning mavjud barcha ichki imkoniyatlarini tizimli tahlil qilish talab etiladi. Bugungi kunda iqtisodiy adabiyotlarda "salohiyat" tushunchasi turli shakllarda — iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyati sifatida qo'llanilmoqda. Biroq ko'pincha ushbu tushunchalar bir-biridan ayro holda tadqiq etiladi. Aslida esa ularning har biri yagona iqtisodiy tizimning uzviy qismlari bo'lib, biri ikkinchisini taqozo etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiyalarni jalb qilmasdan turib iqtisodiy salohiyatni oshirish, moliyaviy resurslar bazasini kengaytirmasdan turib investitsiya faolligini ta'minlash va nihoyat, mustahkam iqtisodiy-investitsion poydevorsiz barqaror soliq salohiyatini shakllantirish imkonsizdir. Shu sababli ushbu salohiyat turlari o'rtasidagi o'zaro deterministik bog'liqlikni nazariy jihatdan o'rganish davlatning fiskal va investitsion siyosatini muvofiqlashtirish uchun juda dolzarb hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda "salohiyat" (potensial) tushunchasini turli darajalarda o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar mavjud. Biroq ularning o'zaro bog'liqligi masalasi murakkab tizimli yondashuvni talab etadi.

Klassik iqtisodiy nazariya vakillari (A. Smith, D. Ricardo) iqtisodiy salohiyatni mamlakatning ishlab chiqarish resurslari bilan bog'lagan bo'lsalar, zamonaviy olimlardan J. M. Keynes moliyaviy resurslarning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolini birinchi o'ringa qo'ygan. Rossiyalik iqtisodchi B. Rayzberg o'z ishlarida moliyaviy salohiyatni iqtisodiy salohiyatning "pul shaklidagi in'ikosi" deb ataydi. Uning fikricha, iqtisodiy salohiyat moddiy asos bo'lsa, moliyaviy salohiyat ushbu asosning harakatlanish vositasidir. [1]

Xususan, R. Musgrave va P. Musgrave o'zlarining *Public Finance in Theory and Practice* (1989) asarlarida soliq salohiyatini (tax capacity) iqtisodiyotning soliq bazasini tashkil etuvchi real daromadlari sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, soliq salohiyati — bu davlatning iqtisodiy o'sishga zarar yetkazmagan holda safarbar etishi mumkin bo'lgan maksimal resurslaridir. [2]

I. Shumpeter va R. Solow kabi olimlarning hissasini alohida ta'kidlash lozim. Ular investitsiyalarni nafaqat kapital jamg'arish, balki innovatsiyalar orqali iqtisodiy salohiyatni kengaytirish usuli deb bilishadi. A. Igonina o'z tadqiqotlarida investitsiya salohiyatini mamlakat iqtisodiy salohiyatining "faol qismi" sifatida tavsiflaydi, ya'ni investitsiyalar mavjud resurslarni real daromadga aylantiruvchi ko'prik vazifasini o'taydi. [3]

Soliq salohiyati ushbu zanjirning yakuniy fiskal natijasidir. G'arb iqtisodchilari R. Musgrave va J. Stiglitz soliq salohiyatini bevosita iqtisodiy bazaning (YaIM) hosilasi deb hisoblashadi. Mahalliy olimlardan A. Jo'rayev va O. Voxidovlar soliq salohiyatining moliyaviy va investitsion faollik bilan bog'liqligini o'rganib, quyidagi qonuniyatni ilgari surishadi:

Iqtisodiy salohiyatning o'sishi — soliq bazasini yaratadi;

Investitsiya salohiyatining realizatsiyasi — soliq bazasini modernizatsiya qiladi;

Moliyaviy salohiyatning oshishi — soliq yig'iluvchanligini ta'minlaydi. [4]

Zamonaviy tadqiqotchi V. Panskov ta'kidlashicha, soliq salohiyati investitsiya salohiyatiga teskari ta'sir ko'rsatishi ham mumkin (Laffer effekti). Ya'ni soliq salohiyatidan haddan tashqari ko'p foydalanish (yuqori soliq yukini joriy etish) investitsiya va moliyaviy salohiyatning qisqarishiga olib keladi. [5]

Sh. Toshmatov soliq salohiyatini oshirishning asosi sifatida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ko'rsatib o'tgan. [6]

Yu. Balaskiy soliq salohiyatini mintaqalar va tarmoqlar kesimidagi soliq resurslarini baholovchi kompleks kategoriya sifatida talqin qiladi.

R. Musgrave soliq salohiyatini davlat iqtisodiy resurslaridan kelib chiqqan holda yig'ilishi mumkin bo'lgan maksimal soliq daromadlari sifatida izohlaydi, bunda soliq tizimining funksional imkoniyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyatlari o'zaro dinamik aloqada bo'lgan yaxlit tizimni tashkil etadi. Iqtisodiy salohiyat "baza", moliyaviy salohiyat "resurs", investitsiya salohiyati "o'zgartiruvchi kuch" va soliq salohiyati "yakuniy natija" funksiyalarini bajaradi. Ilmiy ishimizning keyingi boblarida ushbu bog'liqlikni matematik va statistik usullar bilan asoslash maqsadga muvofiqdir.



TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyatlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi nazariy qarashlar bir necha bosqichda, asosan G'arbiy Yevropa va AQSHda shakllangan.

1. XVIII–XIX asrlar: klassik iqtisodiyot (Buyuk Britaniya). Salohiyat tushunchasining asosi bo'lgan "iqtisodiy resurslar" va ularning "soliq" bilan bog'liqligi dastlab davlatning soliq olish imkoniyati mamlakatning ishlab chiqarish quvvati (iqtisodiy salohiyat) va jamg'arilgan kapital (investitsiya salohiyati) bilan cheklanishi nazariy jihatdan asoslangan.

2. 1920–1930-yillar: keynschilik inqilobi (Buyuk Britaniya va AQSH). Jon Meynard Keyns iqtisodiy, moliyaviy va investitsiya salohiyatlari o'rtasidagi zanjirni ilmiy asoslab berdi. Investitsiyalar (investitsiya salohiyati) orqali umumiy talabni oshirish, bu esa o'z navbatida milliy daromadni (iqtisodiy salohiyat) va davlat budjeti tushumlarini (soliq salohiyati) ko'paytirishi isbotlandi. Bu yondashuv Buyuk Britaniyada, keyinchalik AQSHda (Ruzveltning "Yangi kursi" davrida) amaliyotga joriy etildi.

3. 1970–1980-yillar: "taklif iqtisodiyoti" va Laffer nazariyasi (AQSH). Aynan shu davrda soliq salohiyati va investitsiya faolligi o'rtasidagi bog'liqlik eng yuqori darajada tahlil qilindi. Artur Laffer (AQSH) soliq stavkalarining investitsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatib berdi. Ushbu nazariya soliq salohiyatidan haddan tashqari foydalanish iqtisodiy va investitsiya salohiyatini bo'g'ishini isbotladi. Bu yondashuv AQSHda "Reyganomika" davrida keng qo'llanildi.

4. 1990-yillardan hozirgacha: institutsional yondashuv (Yevropa va MDH). Bu davrda salohiyatlarning o'zaro bog'liqligiga "moliyaviy infratuzilma" va "huquqiy muhit" elementlari qo'shildi. R. Musgrave (AQSH) va J. Stiglitz kabi olimlar soliq salohiyatini mamlakat moliyaviy tizimi barqarorligi bilan uzviy bog'liqlikda o'rgandilar. MDH davlatlarida (Rossiya va O'zbekiston) 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida hududlararo moliyaviy tengsizlikni kamaytirish maqsadida "soliq salohiyati" (tax capacity) tushunchasi ilmiy muomalaga keng kirdi.

Iqtisodiy salohiyatning mohiyati va uning soliq salohiyati bilan o'zaro bog'liqligi. Har qanday milliy iqtisodiyotda "salohiyat" tushunchasidan keng foydalaniladi. Salohiyatni tizimli ravishda aniqlab borish milliy iqtisodiy taraqqiyotning strategik yo'nalishlarini to'g'ri belgilashda muhim ahamiyatga ega. Mazmunan olib qarganda, iqtisodiy salohiyat deganda mamlakat, hudud yoki korxonadagi mavjud resurslar, infratuzilma, inson kapitali va texnologiyalardan foydalangan holda erishilishi mumkin bo'lgan maksimal iqtisodiy natija imkoniyati tushuniladi.

Iqtisodiy salohiyatni tarkibiy jihatdan quyidagi turlarga guruhlash mumkin:

- tabiiy resurslar salohiyati;
- mehnat (inson kapitali) salohiyati;
- ishlab chiqarish (sanoat) salohiyati;
- moliyaviy salohiyat;
- innovatsion va texnologik salohiyat;
- transport-logistika va infratuzilma salohiyati;
- institutsional va demografik salohiyat.

Ushbu salohiyat turlarining aksariyati muayyan darajadagi soliq salohiyatining shakllanishiga, uning oshishiga yoki aksincha, kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy salohiyatni aniqlash strategik rivojlanishni belgilashda ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, u iqtisodiyotning nazariy jihatdan eng yuqori darajada ishlay olish imkoniyatini ifodalaydi.

Iqtisodiy salohiyatning moliyaviy va soliq salohiyati bilan bog'liqligini tavsiflashda mavjud resurslarni asosli baholash, sanoat quvvatlari, texnologiya darajasi va investitsiya hajmlarini tahlil qilish taqozo etiladi. Shuningdek, tabiiy resurslar, mineral zaxiralar, qishloq xo'jaligi yerlari va suv resurslari kabi omillar iqtisodiy salohiyatning fundamental asosi bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion indekslar va ishlab chiqarish zanjirini tahlil qilish hududning imkoniyat va xatarlarini (SWOT tahlil) aniqlashga hamda ularning soliq bazasiga ta'sirini o'lchashga imkon beradi.

Iqtisodiy va soliq salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan baholashda zamonaviy statistik modellardan (regression tahlil, asosiy komponentlar usuli — PCA) foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda infratuzilma indeksleri, transport, energetika, logistika va telekommunikatsiya tizimlarining holati alohida e'tiborga olinishi lozim. Albatta, soliq salohiyati mazmunan va tarkiban moliyaviy salohiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Moliyaviy salohiyat hajmi va darajasiga qarab soliq salohiyati ham shunga monand holda shakllanadi, moliyaviy resurslarning soliq bazasiga aylanishi bu yerda muhim sanaladi. Shu jihatdan olganda, moliyaviy va soliq salohiyatining o'zaro bog'liqligiga kengroq to'xtalib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Avvalo, moliyaviy salohiyatning mazmuniga to'xtalib, ushbu kategoriyaga bildirilgan ilmiy ta'riflarni tahlil qilamiz (1-jadval).

1-jadval. Moliyaviy salohiyat kategoriyasiga oid ilmiy yondashuvlar¹

№	Muallif(lar)	Moliyaviy salohiyat kategoriyasiga oid ilmiy yondashuv mazmuni	Manbasi
1	O.Sviridov	Moliyaviy salohiyat – bu hududdagi barcha mavjud moliyaviy resurslardan tashkil topgan konsolidallashtirilgan budjet, budjetdan tashqari fondlar va budjetlararo oqimlarni, federal va mahalliy hokimiyat organlari kimmatli qog'ozlarni, korxona va tashkilotlar moliyaviy natijalari, aholi jamg'armalari, hudud bank kredit tizimi muassasalarining moliyaviy resurslarini hamda boshqa mintaqa banklaridan jalb qilingan mablag'larni qamrab oladi	Sviridov O.E. Finansy, deneznoe obrazenie i kredit. //Jurnal.Rostov-Don mart 2004. – s.113
2	J.Golodova	Hududlarning moliyaviy salohiyati deb hudud moliyaviy tizimining mavjud resurslar yig'indisi tashkil etib, hududning ushbu moliyaviy resurslari evaziga uzoq muddatga istiqbolga qaratilgan o'sish va rivojlanishni ta'minlay olish qobiliyati, hamda davlat (bu yerda asosiy e'tibor moliya – bank tizimini tartibga solib borish mexanizmiga qaratilgan) korxona va tashkilotlar, hudud aholisi tomonidan yaratilayotgan shart – sharoitlarni e'tiborga olib, ijtimoiy rivojlanish va kengaytirilgan ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida ushbu resurslarni shakllantirish, taqsimlash va qayta taqsimlashdan iborat	Golodova J.G. Finansovyy potentsial regiona i upravlenie elementami. //Vestnik RUDN 2004. – s.9
3	A.Kolomies, A.Novikova	Hududlarning moliyaviy salohiyati bu aholi ijtimoiy – iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va hududning rivojlanishi uchun to'liq hajmda safarbar etilmaydigan hududning moliyaviy resurslari, soliq salohiyati yig'indisidir	Kolomies A.L., Novikova A.I. Mintaqa soliq va moliyaviy salohiyatlari nisbati. Soliq xabarnomasi.-2000. -№3-4-7b
4	L.V.Buranova.	Hududlarning moliyaviy salohiyati – bu ishlab chiqarilgan milliy daromadning bir qismi sifatida, davlat (mahalliy budjet daromadlari), xo'jalik yurito'vchi sub'ektlar (qayta ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida qatnashadigan), moliya – bank tizimi institutlari (jalb qilingan va o'z mablag'lari) va aholining (real umumiy pul daromadlari) jami moliyaviy resurslarini tashkil etib, hududning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish strategiyasi maqsadlariga yo'naltirilgan, hozirgi vaqtda yaratilayotgan va oldindan to'plangan moliyaviy resurslari yig'indisidir.	Hududlarning moliyaviy salohiyatini baholash va mahalliy budjetlarning daromadlarini mustahkamlash masalalari (Surxondaryo viloyati misolida). Monografiya T.:2022.- 184 b.
5	K.Menkova	Moliyaviy salohiyat – bu safarbar etiladigan moliyaviy resurslarning bir qismi bo'lib, hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilgandir	Menkova K.M. Teoreticheskie i metodologicheskie podxody k otsenke finansovogo potentsiala munitsipal'nykh obrazovaniy v usloviyax reformirovaniya territorialnoy organizatsii mestnogo samoupravleniya.// Finansy i kredit.№4.-2008. – s.32-39
6	Ostapenko V.M.	Hudud moliyaviy salohiyati – hudud barcha fondlar yig'indisini o'z ichiga olib, uning tarkibi, tuzilishi hamda miqdoriy baholanishini yalpi hududiy mahsulotning taqsimlanishi va hududda tarmoqlar faoliyatini moliyalashtirishning ichki imkoniyatlari bilan aniqlanadi	Ostapenko V.M. Konsepsiya finansovogo potentsiala.// Dengi, finansy i kredit №8 – 2017. – s.640 – 643 UDK 334.021.
7	Verbienko A.A.	Hududning moliyaviy salohiyati – bu moliyaviy oqimlarining yig'indisi bo'lib, korxona va tashkilotlarning joriy va investitsiya xarajatlari, aholi iste'moli va jamg'armalari hamda mahalliy budjet daromadlari kiradi	Verbienko A.A. Hududning moliyaviy salohiyatini shakllanishining zamonaviy konsepsiyasi //Regionalnye problemy preobrazovaniya ekonomiki. - №3 . - 2007. – s.103-108

1 Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida muallif tomonidan tuzilgan.



8	G.Merzlikina, L.Shaxovskaya	Hududlarning moliyaviy salohiyatini hudud iqtisodiy salohiyatining tarkibiy qismi sifatida talqin qilishni taklif qiladi va ishlab chiqarish salohiyati, bozor salohiyati bilan uyg'unligi	Merzlikina G.S., Shaxovskaya L.S., Rastyapina O.A. Otsenka ekonomicheskoy sostoyatelnosti predpriyatiya: //Monografiya //VolgGTU – Volgograd 1998. - s.265
9	O.Tishutina va O.Kameneva	hududlarning moliyaviy salohiyati hududda jamlangan jami moliyaviy resurslarni tashkil etib, hududning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan tijorat maqsadida tashqi moliyaviy oqimlar, hududiy zahira hamda faoliyat natijasidan olingan daromaddan iborat	Tishutina O.I., Kameneva O.V. Metodologiya opredeleniya finansovogo potentsiala prigranichnogo regiona// Finansy i kredit. - №1(289) – 2008. – s.23-28.

Yuqorida moliyaviy salohiyatga ayrim xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy yondashuvlari keltirilgan bo'lib, ularning aksariyatida milliy iqtisodiyotni yoki alohida olingan hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydigan moliyaviy resurslar sifatida ta'riflangan. Shuningdek, iqtisodiy lug'atlarga e'tibor beradigan bo'lsak, "moliyaviy salohiyat" tushunchasi ingliz tilida "financial muscle", "financial potential" ma'nosida qo'llanilib, davlat pul mablag'larining yig'indisi, bir tarmoqdan ikkinchisiga qayta taqsimlash natijasida olingan mablag'lar sifatida izohlangan hamda har qanday masalalarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan mablag'lar majmui deb ta'riflangan.

O'z navbatida, soliq salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, moliyaviy salohiyat shunchalik kuchli bo'ladi, sababi soliq salohiyati doiraviy almashinish tarzida qo'shimcha moliyaviy salohiyatni ham yuzaga keltiradi. Masalan, davlat budjetidan ajratiladigan markazlashgan investitsiyalarning manbai soliq tushumlari hisoblanadi, o'z navbatida esa bu markazlashgan investitsiyalar real sektorning moliyaviy salohiyatini oshiradi, ya'ni u yerda qo'shimcha ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirishga imkon berganligi natijasida qo'shimcha moliyaviy resurslar shakllanadi, bu ikki kategoriya bir-birini to'ldirib boradi.

Darhaqiqat, soliq salohiyati moliyaviy salohiyatning davlat tomonidan mobilizatsiya qilinadigan qismi hisoblanadi, ularning o'zaro uzviyligi moliyaviy salohiyatning soliq salohiyatiga aylanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi. Bunda, birinchidan, moliyaviy resurslar harakatlanishi natijasida soliq obyektlari va bazasi bo'lgan iqtisodiy obyektlar yuzaga keladi va kengayadi; ikkinchidan, bir yo'nalishdagi moliyaviy resurslarning boshqa moliyaviy resurslar ko'payishiga ta'siri ularning arifmetik tarzda ortishiga olib kelib, qo'shimcha soliq tushumlarining oshishiga sabab bo'ladi; uchinchidan esa, soliq salohiyatining kengayib borishi davlatning moliya-soliq siyosati orqali budjetga qo'shimcha moliyaviy mablag'larni jalb qilish imkoniyatini oshiradi, natijada budjet orqali jamiyatning iqtisodiy faolligi jonlanadi va yangi moliyaviy resurslar paydo bo'ladi. Bu holat soliqlarni jalb qilishda soliq yukini oshirmagan holda ko'proq soliq tushumlarini safarbar etish imkonini beradi.

Shunday ekan, davlat doimo moliyaviy va soliq salohiyatini oshirib borishdan manfaatdor bo'ladi va ularning bir-biriga aylanib turishini ta'minlash makroiqtisodiy modellarni to'g'ri qo'llashni taqozo etadi.

Soliq salohiyati investitsion salohiyat bilan ham o'zaro ta'sir aloqasiga ega bo'lib, investitsion salohiyatning soliq salohiyatiga ta'siri iqtisodiy rivojlanish zanjirida muhim o'rin tutadi. Agar buni ilmiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, investitsion salohiyat soliq salohiyatiga bevosita ham, bilvosita ham ta'sir ko'rsatishini ko'rish mumkin.

Mohiyati jihatidan investitsion salohiyat bu milliy iqtisodiyot, hudud yoki korxonaning investitsiyalarni jalb qilish va samarali o'zlashtirish imkoniyatlari yig'indisi bo'lib, u ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsiya xavflarining darajasi, moliyaviy bozorlar rivoji, mehnat va inson kapitali, tabiiy resurslar hamda institutsional muhit kabi omillar bilan belgilanadi.

Rossiya Federatsiyasida iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyatlarining o'zaro bog'liqligini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish asosan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri (1990-yillarning oxiri) hamda budjet federalizmi tizimining shakllanishi bilan bog'liq. Rossiya tajribasining asosiy jihatlarini quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilish mumkin:

1. Nazariy asoslarning shakllanishi. Rossiyada bu masala asosan "Hududiy iqtisodiy barqarorlik" nuqtayi nazaridan o'rganilgan. 2000-yillarning boshlarida iqtisodchi olimlar (masalan, I. Gorskiy, V. Panskov, A. Dadashev) soliq salohiyatini shunchaki tushum emas, balki hududning iqtisodiy va investitsiyaviy imkoniyatlarining mahsuli sifatida talqin qila boshladilar. Rossiya fanida "Nalogoviy potentsial" (soliq salohiyati) tushunchasi bevosita "Ekonomicheskii potentsial" (iqtisodiy salohiyat) bilan uzviy bog'liqlikda ko'riladi.

2. Budjetlararo munosabatlar va tenglashtirish. Rossiya ulkan hududga ega bo'lgani uchun federal hukumat hududlarning soliq salohiyatini aniqlashda kompleks yondashuvni qo'llaydi:



— Soliq salohiyati indeksi: har bir subyekt (viloyat, respublika) uchun uning iqtisodiy bazasi, resurslari va investitsiya jozibadorligidan kelib chiqib qancha soliq yig'ishi mumkinligi hisoblanadi.

— Moliyaviy yordam: agar hududning iqtisodiy va moliyaviy salohiyati past bo'lsa, federal budjetdan dotatsiyalar ajratiladi. Bu tizimda soliq salohiyati “donor” va “subvensiya oluvchi” hududlarni ajratishda asosiy mezon hisoblanadi.

3. Investitsion faollik va soliq imtiyozlari bog'liqligi. Rossiyada investitsiya salohiyatini oshirish orqali soliq bazasini kengaytirishning bir necha mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Bu yerda investitsiya salohiyatini jalb qilish uchun soliq salohiyatidan vaqtincha voz kechiladi (imtiyozlar beriladi). Maqsad — uzoq muddatda iqtisodiy o'sish hisobiga kattaroq soliq bazasini yaratish. Hududiy rivojlanish loyihalarida investitsiya kiritgan korxonalarga kelajakda to'lanadigan soliqlar hisobidan infratuzilma xarajatlarini qoplash tizimi mavjud.

4. Zamonaviy raqamli monitoring (FNS tajribasi). Rossiya Federal Soliq Xizmati (FNS) iqtisodiy va soliq salohiyatining o'zaro bog'liqligini Big Data (katta ma'lumotlar) orqali tahlil qiladi:

— “ASK NDS” tizimi: bu tizim iqtisodiyotdagi moliyaviy oqimlarni real vaqt rejimida kuzatadi. Bu esa soliq salohiyatining qanchasi “yashirin iqtisodiyot”da qolayotganini ko'rish imkonini beradi.

— Soliq monitoringi: yirik investorlar uchun davlat bilan “ochiq muloqot” tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu investitsiya salohiyatini himoya qilish va soliq tushumlarini prognoz qilishda yordam beradi.

Rossiya bu masalada “markazlashgan nazorat va hududiy rag'bat” modelini qo'llaydi. Ya'ni, soliq salohiyatini hisoblash usullari federal darajada qat'iy belgilangan, biroq hududlarga o'z investitsiya jozibadorligini oshirish orqali iqtisodiy salohiyatini o'stirishga erkinlik berilgan.

Germaniya modelining asosiy ustunlari quyidagilardan iborat:

1. Nazariy asos: ordoliberalizm. Germaniyada bu tushunchalarning o'zaro bog'liqligi Valter Oyken va Lyudvig Erxard kabi olimlar tomonidan asoslangan. Davlat iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish uchun shunday huquqiy va soliq muhitini (investitsiya salohiyati) yaratishi kerakki, unda raqobat o'z-o'zidan moliyaviy barqarorlikni ta'minlasin. Soliq salohiyati iqtisodiyotni “bo'g'uvchi” emas, balki ijtimoiy infratuzilmani (ta'lim, texnologiya) qayta moliyalashtiruvchi vosita sifatida ko'riladi.

2. “Länderfinanzausgleich” — hududiy moliyaviy tenglashtirish. Germaniya federal davlat bo'lgani uchun hududlar (federal yerlar) o'rtasidagi salohiyatlar muvozanati muhim hisoblanadi. Bavariya yoki Baden-Vyurtemberg kabi sanoatlashgan hududlar yuqori iqtisodiy va soliq salohiyatiga ega. Yuqori soliq salohiyatiga ega “donor” yerlar o'z daromadlarining bir qismini soliq salohiyati pastroq bo'lgan (masalan, sobiq Sharqiy Germaniya hududlari) yerlarga o'tkazadi. Bu jarayon past salohiyatli hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirish orqali ularning iqtisodiy bazasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Investitsiya va soliq salohiyati: “Mittelstand” omili. Germaniya iqtisodiy salohiyatining asosi — kichik va o'rta biznes (Mittelstand). Soliq tizimi shunday tuzilganki, korxonalar o'z foydasini qayta investitsiya qilsa (investitsiya salohiyati), ularga katta imtiyozlar beriladi. Bu korxonalarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, bu esa davlat uchun doimiy va ishonchli soliq salohiyatini yaratadi.

4. “Soliq tormozi” (Schuldenbremse) nazariyasi. Germaniya Konstitutsiyasida mustahkamlangan ushbu qoida moliyaviy salohiyatni jilovlab turadi. Davlat o'z soliq salohiyatidan ortiqcha qarz olmaydi (YalMning 0,35 %igacha cheklangan). Bu qoida barcha salohiyatlarni “real imkoniyatlar” doirasida ushlab turishga majbur qiladi, bu esa inflyatsiyaning oldini oladi va investitsiya muhitini barqarorlashtiradi.

5. Raqamli va ekologik transformatsiya. Hozirgi kunda Germaniya soliq salohiyatini “Yashil iqtisodiyot” (Green Economy) bilan bog'lamoqda. Ekologik toza texnologiyalarga (investitsiya salohiyati) soliq imtiyozlari berish orqali kelajakdagi yangi sanoat bazasi (iqtisodiy salohiyat) yaratilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy, moliyaviy, investitsiya va soliq salohiyatlari o'zaro zanjirsimon bog'liqlikka ega. Iqtisodiy salohiyat — poydevor (resurs), investitsiya salohiyati — harakatlantiruvchi kuch, moliyaviy salohiyat — natija va soliq salohiyati — davlatning ushbu jarayonlardagi ulushidir. Soliq salohiyati faqat ma'muriy choralar bilan emas, balki iqtisodiy bazaning kengayishi va investitsiyalar oqimi bilan ortadi. Germaniya va Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq yukining optimalligi investitsiya faolligini rag'batlantiruvchi asosiy omildir. Tadqiqotlar hududlarning iqtisodiy salohiyati turlicha bo'lgani sababli ularning soliq yig'ish imkoniyatlari ham tabaqalashganini ko'rsatadi. Bu esa davlatdan hududiy moliyaviy tenglashtirish siyosatini yuritishni talab etadi. Germaniyaning moliyaviy nazorati va Rossiyaning raqamli soliq ma'murchiligi “yashirin” iqtisodiy salohiyatni legallashtirishda yuqori samaradorlikni namoyon etmoqda.

Takliflar:

1. “Investitsiya–soliq” multiplikatorini joriy etish. Yangi investitsiya loyihalariga berilgan soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash tizimini yaratish. Imtiyoz faqatgina kelajakda soliq salohiyatini kamida 2–3 barobar oshiradigan tarmoqlarga berilishi lozim.



2. Hududiy soliq salohiyatini baholash metodikasini takomillashtirish. Hududlarning soliq salohiyatini hisoblashda faqat amaldagi tushumga emas, balki Germaniya tajribasidagi kabi “reprezentativ soliq tizimi” usuliga o’tish. Ya’ni hududning YaHM, resurslari va demografiyasidan kelib chiqib, u qancha soliq yig’ishi kerakligi (nazariy salohiyati) hisoblanishi lozim.

3. Kichik va o’rta biznesning moliyaviy salohiyatini qo’llab-quvvatlash. Germaniyaning “Mittelstand” modeli kabi, o’z foydasini yangi texnologiyalarga qayta investitsiya qilayotgan korxonalar uchun daromad solig’i bo’yicha qo’shimcha chegirmalar (investment tax credit) tizimini kengaytirish.

4. Ekologik va innovatsion salohiyatni rag’batlantirish. “Yashil” texnologiyalarni joriy etuvchi investorlar uchun uzoq muddatli (10–15-yil) barqaror soliq rejimini kafolatlash. Bu iqtisodiy salohiyatning barqaror o’sishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest, and Money. – 1936.
2. Rayzberg B.A. Kurs ekonomiki. – M.: INFRA-M, 2017.
3. Jo’rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. – T.: Sharq, 2004.
4. Panskov V.G. Nalogi i nalogovaya sistema RF. – M.: Finansi i statistika, 2018.
5. Laffer A.B. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. – Heritage Foundation, 2004.
6. Balaskiy Yu.V. Nalogovyy potentsial regionov. M., 2002.
7. Musgrave R., Musgrave P. Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill, 1989.
8. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
